



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 322 sahifa,
18-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori	14
Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni	23
Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari	28
B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	47
A. Safarov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
Xolmatov Doston Dilshod o'g'li	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi	60
Xolmurodova Sarvinoz	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
G'afforova Dildora Ergashevna	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
Yusupova Umida Zayniddin qizi	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil	78
Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi	81
Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
Xurramova Sojida Abdunazar qizi	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari.....	91
Risvayeva Charos Zaydilla qizi	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi	94
Z. N. Urunova, M. Jaborova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash	97
Sattorova Shirinoy San'atovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
Buvrayev Akram Rustam o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar	104
Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati	107
Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish	111
<i>Akaboyeva Malika Raxmatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi	114
<i>Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	117
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish	122
<i>Narmatova Fotima Dilshod qizi</i>	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements	127
<i>Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
<i>Meyliyeva Sevinch Bozor qizi</i>	
Anoreksiyasi va bulimiyaning psixologik determinantlari hamda klinik jihatlari	132
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi</i>	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish	136
<i>Bozorov Otabek Yo'lchi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi</i>	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi	139
<i>Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich</i>	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя	144
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович</i>	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля камерaproctor	149
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Исломбек Ильесович</i>	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar	154
<i>Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'klanboy qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri	160
<i>Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi</i>	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli	165
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni	170
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi</i>	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari	174
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	178
<i>Jumayeva Guzal Xayriddin qizi</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish	183
<i>Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyevich</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari	187
<i>Axralova Marg'uba Akmalxanovna</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	191
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	196
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna</i>	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti	202
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction 205 A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova
	Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati 208 Majitov Turg'unali Anvar o'g'li
	Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari 214 Ismoilova Muattar Ilyosovna
	Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari 219 Alqarov Qodir Xoimatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li
	Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish 222 Murodova Sayyora Qanoatovna
	Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari 226 Norboyeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li
	Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari 230 Abdunabiyeva Kamola Mansurovna
	Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili 236 Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi
	Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 240 Kozimov Sayfulloh Maxammadjon o'g'li
	Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish 245 Raximov Zokir Toshmirovich
	Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari 249 Temirov Shoirbek Raimjonovich
	Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish 253 Kimsanova Rahnamo Solijonovna
	Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish 257 Muratov Muzaffar Shermamatovich
	Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari 261 Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li
	Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv asoslari 264 Oblayeva Lobar Erdonovna
	STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations 268 Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi
	Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari 272 Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna
	Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi 276 Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi
	Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools 279 S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova
	Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration 282 Shahlo Obidova
	Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish 286 Shodmonova Shoirsa Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi
	Talabalarning to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari 290 Turakulova Feruza Mamadoli qizi



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки)	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	



OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON RUHIY SALOMATLIGIGA TA'SIRI: EMPIRIK TADQIQOT NATIJALARI

Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
"Amaliy psixologiya" kafedrasida magistranti

Ilmiy rahbar: M. V. Karimova
Ps.f.d., prof.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ommaviy axborot vositalarining (OAV) inson ruhiy salomatligiga ta'siri o'smirlar va talabalar namunasida empirik jihatdan o'rganildi. Tadqiqotda Spielberger-Xanin so'rovnomasi, DASS-21, Bass-Darki agressivlik diagnostikasi metodikalari va mualliflik so'rovnomasidan foydalanildi. Natijalar OAV dan 2 soatdan ortiq foydalanish xavotir va stress darajasini oshirishini, salbiy kontent esa agressivlikni kuchaytirishini ko'rsatdi. Korrelyatsion tahlil shaxsiy xavotir va emotsional ko'rsatkichlar o'rtasida kuchli bog'liqlik ($r=0.73-0.77$, $p<0.01$) mavjudligini tasdiqladi.

Kalit so'zlar: ommaviy axborot vositalari, ruhiy salomatlik, xavotir, stress, agressivlik, depressiya, o'smirlar, talabalar, media ta'siri.

Abstract: This article empirically examines the impact of mass media on human mental health among adolescents and university students. The study employed the Spielberger-Khanin Anxiety Inventory, the DASS-21 scale, the Buss-Durkee Aggression Diagnostic Method, and an author-developed questionnaire. The findings revealed that using mass media for more than two hours a day increases the levels of anxiety and stress, while exposure to negative content intensifies aggressive behavior. Correlation analysis confirmed a strong relationship between trait anxiety and emotional indicators ($r = 0.73-0.77$, $p < 0.01$).

Key words: mass media, mental health, anxiety, stress, aggression, depression, adolescents, students, media influence.

Аннотация: В данной статье эмпирически исследовано влияние средств массовой информации (СМИ) на психическое здоровье человека на примере подростков и студентов. В исследовании были использованы методика Спилбергера-Ханина, шкала DASS-21, методика диагностики агрессивности Басса-Дарки, а также авторская анкета. Полученные результаты показали, что использование СМИ более 2 часов в день способствует повышению уровня тревожности и стресса, а негативный контент усиливает проявления агрессивности. Корреляционный анализ подтвердил наличие сильной взаимосвязи между личностной тревожностью и эмоциональными показателями ($r=0,73-0,77$, $p<0,01$).

Ключевые слова: средства массовой информации, психическое здоровье, тревожность, стресс, агрессивность, депрессия, подростки, студенты, влияние медиа.

KIRISH

Bugungi axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ommaviy axborot vositalari (OAV) – televizion, radio, internet portallari va ijtimoiy tarmoqlar – inson hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bir tomondan, OAV axborot olish, bilimlarni boyitish va ijtimoiylashuv imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning inson ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda^[1; 2].

O'zbekistonda ham yoshlar hayotida OAV va ijtimoiy tarmoqlarning o'rni keskin ortib bormoqda. Shu bilan birga, axborot oqimining sifati va miqdori yoshlarning ruhiy holati, xavotir, stress hamda agressivlik darajalariga qanday ta'sir ko'rsatishi yetarli darajada o'rganilmagan. Ushbu tadqiqot mazkur bo'shliqni to'ldirish maqsadida tashkil etildi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, Yoshlar xalqaro deklaratsiyasida "Yoshlar – barqaror rivojlanish maqsadlarining drayveri" sifatida belgilanishi^[3], O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29–30-moddalari hamda "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonun (2016–yil) yoshlarni axborot muhitining salbiy ta'sirlaridan



himoyalash zarurligini qayd etadi^[4]. Shu sababli, OAVning ruhiy salomatlikka ta'sirini empirik jihatdan o'rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning obyekti Qashqadaryo viloyatidagi 11-maktabda tahsil olayotgan 10–11-sinf o'quvchilari hamda O'zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2–3-kurs talabalaridan iborat bo'lib, jami 70 nafar respondent maqsadli tanlov usuli asosida tadqiqotga jalb qilindi.

Tadqiqot predmeti talabalar va o'quvchilarning axborot muhitidagi psixologik xususiyatlarini tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi: o'smirlar va talabalarning ijtimoiy hayotida axborot muhitining ta'siriga oid psixologik xususiyatlarni ochib berish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Ommaviy axborot vositalarini iste'mol qilishning turlari, o'lchovlari va o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish.
2. OAV kontentining salbiy va ijobiy xarakteri, xavotir hamda qo'rquvni kuchaytirish mexanizmlarini empirik jihatdan o'rganish.
3. Shaxs ruhiy salomatligining asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash.
4. Xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Media ta'sirini o'rganishda bir qator fundamental nazariyalar metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

A.N. Leontevning faoliyat nazariyasiga ko'ra, media iste'moli shaxsning faol psixologik faoliyati – axborotni tanlash, idrok etish va unga munosabat bildirish jarayonlari orqali emotsional holatni shakllantiradi^[5].

A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi OAVdagi xulq-atvor modellari kuzatish va taqlid qilish orqali o'zlashtirilishini asoslaydi^[6].

A. Bekning kognitiv nazariyasiga ko'ra, salbiy kognitiv sxemalarning ta'siri shaxsda depressiya va xavotirni yuzaga keltiradi^[7].

G. Gerbnerning kultivatsiya nazariyasi esa muntazam ravishda zo'ravonlik mazmunidagi kontentni iste'mol qilish "xavfli dunyo sindromi"ni vujudga keltirishini ta'kidlaydi^[8].

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanish depressiv simptomlar bilan bog'liq^[9], salbiy yangiliklar xavotir darajasini oshiradi^[10], zo'ravonlik mazmunidagi kontent esa agressivlikni kuchaytiradi^[11].

M.V. Karimova ta'kidlaganidek, "ijtimoiy va psixologik nuqtai nazardan o'zlarini sog' va salomat his etgan odamlargina jamiyatning faol a'zolari bo'lishi mumkin"^[12]. Bu esa OAVning shaxs psixik salomatligiga ta'sirini o'rganishning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

O'zbekistonda OAVning yoshlar ruhiy salomatligiga ta'sirini kompleks psixodiagnostik vositalar yordamida o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar soni hali ham cheklangan. Mazkur tadqiqot ushbu bo'shliqni to'ldirish maqsadida tashkil etildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot tizimli, kompleks va qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'sirini aniqlash maqsadida o'quvchilar va talabalar guruhlarini o'rtasida qiyosiy taqqoslash usulidan foydalanildi. Ushbu usul orqali respondentlarning xavotir, stress va agressivlik darajalari o'zaro solishtirilib, media muhitining turli yosh va ijtimoiy guruhlariga ta'sir xususiyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda empirik, psixodiagnostik va statistik metodlardan foydalanildi. Respondentlarning ruhiy-emotsional holatini aniqlash uchun STAI xavotirlik metodikasi, DASS–21 shkalasi hamda Buss–Durkee agressivlik diagnostikasi metodikasi qo'llanildi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish chastotasi, davomiyligi hamda respondentlarning emotsional reaksiyalarini aniqlash maqsadida mualliflik ijtimoiy so'rovnomasi ishlab chiqildi.

Tadqiqotda Qashqadaryo viloyatidagi 10–11-sinf o'quvchilari va O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti talabalarini ishtirok etdi. Olingan natijalar matematik-statistik jihatdan SPSS 26.0 dasturi yordamida qayta ishlandi. Tadqiqot davomida deskriptiv statistika, guruhlararo farqlarni aniqlash uchun t-test hamda ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida Pirson korrelyatsion tahlilidan foydalanildi. Natijalar asosida ommaviy axborot vositalaridan uzoq muddat foydalanish xavotir va stress darajasining ortishi, salbiy media kontent esa agressiv reaksiyalarning kuchayishi bilan bog'liqligi aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda quyidagi to'rtta metodika qo'llanildi. Tanlash usuli sifatida maqsadli tanlov qo'llanilib, ixtiyoriylik va anonimlik tamoyillariga to'liq rioya qilindi.

1. **STAI (State-Trait Anxiety Inventory)** – Ch.D. Spilberger va Yu.L. Xanin. 40 ta savoldan (20 RX + 20 ShX) iborat bo'lib, "Xavotirlanish darajasini aniqlash" metodikasi hisoblanadi [13].
2. **DASS-21 (Depression Anxiety Stress Scales)** – Lovibond & Lovibond. 21 ta savoldan (3x7 blok) iborat bo'lib, depressiya, xavotir va stressni uchta mustaqil shkala orqali o'lchaydi [14].
3. **Bass-Darki agressivlik metodikasi** – A. Buss va A. Durkee. 75 ta savoldan iborat bo'lib, 8 ta subshkalani: jismoniy, verbal, bilvosita agressiya, negativizm, jizzakilik va boshqa ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi [15].
4. **Mualliflik ijtimoiy so'rovnoma** – OAV iste'moli chastotasi, davomiyligi, kontent turi va subyektiv emotsional reaksiyalarni o'rganishga mo'ljallangan bo'lib, 10 ta savoldan iborat.

Ma'lumotlar SPSS 26.0 dasturida qayta ishlandi. Qo'llanilgan statistik metodlar: deskriptiv statistika, t-test (guruhlararo taqqoslash) hamda Pirson korrelyatsion tahlili ($p < 0.05$ va $p < 0.01$ darajasida).

Respondentlarning jins tarkibi quyidagicha taqsimlandi: qizlar – 42 nafar (60%), o'g'il bolalar – 28 nafar (40%). Mualliflik so'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, ishtirokchilarning 40%i axborotni asosan ijtimoiy tarmoqlar orqali oladi, 35%i internet portallari, 15%i televideniye va 10%i radio orqali foydalanadi. OAV iste'moli davomiyligi bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar qayd etildi: kuniga 30 daqiqadan kam – 8 nafar (11%), 30 daqiqa–1 soat – 18 nafar (26%), 1–2 soat – 25 nafar (36%), 2 soatdan ortiq – 19 nafar (27%).

Respondentlarning 60%i OAV kontenti tez-tez xavotir va stress uyg'otishini ta'kidlagan. OAVdan foydalanishdan keyin 50% respondentda asabiylik, 30% respondentda esa ruhiy charchoq kuzatilgan. Ijobiy kontent esa 39% respondentda ilhomlanish, 20% respondentda kayfiyatning yaxshilanishiga olib kelganligi qayd etilgan.

STAI natijalariga ko'ra xavotirlik darajasi

STAI metodikasi natijalariga ko'ra, reaktiv xavotirlik shkalasida talabalarda o'rtacha ko'rsatkich ($M=33.40$) o'quvchilarga nisbatan ($M=27.17$) statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi ($t=-2.546$; $p \leq 0.05$). Bu holat talabalar hayotidagi akademik yuklama, mas'uliyat va ijtimoiy bosimning yuqoriligi, shuningdek, OAVdan ko'proq foydalanish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shaxsiy xavotirlik shkalasi bo'yicha esa ikki guruh o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($p > 0.05$). Bu shaxsiy xavotirlikning barqaror individual xususiyat sifatida yosh omiliga nisbatan mustaqil ekanligini ko'rsatadi.

DASS-21 bo'yicha depressiya, xavotir va stress

DASS-21 metodikasi natijalari quyidagicha: depressiya bo'yicha o'quvchilarda $M=11.80$, talabalarda $M=13.00$ ($p > 0.05$); xavotir bo'yicha o'quvchilarda $M=10.62$, talabalarda $M=10.42$ ($p > 0.05$); stress bo'yicha o'quvchilarda $M=17.48$, talabalarda $M=17.11$ ($p > 0.05$). Ikkala guruhda ham ko'rsatkichlar "yengil" darajadan yuqori ekanligi aniqlandi. Guruhlararo statistik farq aniqlanmaganligi esa emotsional zo'riqish darajasi har ikki yosh guruhida ham o'xshash darajada mavjudligini bildiradi.

Bass-Darki bo'yicha agressivlik

Bass-Darki metodikasi natijalari eng muhim farqlarni namoyon etdi. Bilvosita agressiya bo'yicha o'quvchilar ($M=61.85$) talabalarga nisbatan ($M=39.85$) statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori ko'rsatkichni namoyish etdi ($t=4.866$; $p \leq 0.01$). Ranj (dushmanlik hissi) ko'rsatkichi bo'yicha ham o'quvchilar ($M=51.14$) talabalarga ($M=36.11$) nisbatan yuqori natijani ko'rsatdi ($t=3.404$; $p \leq 0.01$). Bu o'smirlik davriga xos emotsional beqarorlik va impulsivlik, shuningdek, OAVdan ongsiz foydalanish bilan izohlanadi.

Olingan natijalar A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi bilan to'liq mos keladi: OAVda muntazam namoyish etilgan agressiv xulq modellari o'smirlar ongida agressiv xulqiy skriptlarni shakllantirishi mumkin [6].

Korrelyatsion tahlil

Pirson korrelyatsion tahlili quyidagi muhim bog'liqliklarni aniqladi (1-jadval).

1-jadval: Korrelyatsion tahlil natijalari

Ko'rsatkichlar	r	p	Talqin
Depressiya – Shaxsiy xavotir	0.731	$p < 0.01$	Kuchli ijobiy
Xavotir – Shaxsiy xavotir	0.746	$p < 0.01$	Kuchli ijobiy
Stress – Shaxsiy xavotir	0.772	$p < 0.01$	Kuchli ijobiy
OAV vaqti – Reaktiv xavotir	0.412	$p < 0.05$	O'рта ijobiy



Korrelyatsion tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, shaxsiy xavotir ko'rsatkichi stress, xavotir va depressiya bilan eng kuchli ijobiy bog'liqlikka ega (barcha hollarda $p < 0.01$). Bu A. Bekning kognitiv nazariyasini tasdiqlaydi: OAV kontentidagi salbiy kognitiv sxemalar shaxsda barqaror xavotir va depressiv holatlarni shakllantirib boradi [7].

OAV iste'moli vaqti bilan reaktiv xavotir o'rtasida ham o'rtacha kuchli ijobiy bog'liqlik ($r = 0.412$; $p < 0.05$) aniqlandi, bu esa H_1 gipotezasini empirik jihatdan tasdiqlaydi.

H₁: OAVdan haddan tashqari foydalanish xavotir va stress darajasini oshiradi – TASDIQLANDI. STAI reaktiv xavotiri va OAVdan foydalanish vaqti o'rtasida $r = 0.412$ ($p < 0.05$).

H₂: Salbiy kontent agressivlik darajasini kuchaytiradi – TASDIQLANDI. O'quvchilarda bilvosita agressiya ko'rsatkichi ($M = 61.85$) talabalarga nisbatan yuqori ($p \leq 0.01$).

H₃: Passiv foydalanish depressiv simptomlar bilan bog'liq – QISMAN TASDIQLANDI. Depressiya ko'rsatkichi shaxsiy xavotir bilan $r = 0.731$ ($p < 0.01$), ammo guruhlar o'rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli emas ($p > 0.05$).

H₄: OAV ta'siri yoshga qarab farqlanadi – TASDIQLANDI. O'smirlar talabalar bilan solishtirganda agressivlik va ranj ko'rsatkichlari bo'yicha statistik jihatdan yuqori natijalarni ko'rsatdi ($p \leq 0.01$).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur empirik tadqiqot ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri ikki tomonlama xarakterga ega ekanligini tasdiqladi. Quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

- OAVdan kuniga 2 soatdan ortiq foydalanish xavotir va stress darajasini statistik jihatdan sezilarli darajada oshiradi ($r = 0.412$; $p < 0.05$).
- Zo'ravonlik va salbiy kontent iste'moli Bass–Darki ko'rsatkichlari bo'yicha agressivlik darajasini kuchaytiradi. Bilvosita agressiya bo'yicha guruhlararo farq $t = 4.866$ ($p \leq 0.01$).
- 10–11-sinf o'quvchilari talabalar bilan solishtirganda media ta'siriga nisbatan yuqori sezuvchanlikni namoyon etadi: bilvosita agressiya ($M = 61.85$ va $M = 39.85$) hamda ranj ($M = 51.14$ va $M = 36.11$) ko'rsatkichlari bo'yicha.
- Shaxsiy xavotir emotsional holatlarning eng muhim integrativ ko'rsatkichi sifatida aniqlandi: u stress, xavotir va depressiya bilan kuchli ijobiy korrelyatsiyaga ega ($r = 0.73–0.77$; $p < 0.01$).

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Ta'lim muassasalari uchun: media savodxonlikni oshirish bo'yicha maxsus dasturlarni joriy etish; psixologlar tomonidan stress va agressivlikni boshqarishga oid treninglar o'tkazish.

Ota-onalar uchun: farzandlarining OAV iste'molini vaqt jihatdan tartibga solish (kuniga 1–2 soatdan oshirmaslik); oilada emotsional qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish.

Psixologik xizmat uchun: diagnostika jarayonida STAI, DASS–21 va Bass–Darki metodikalarini kompleks qo'llash; talabalar uchun imtihon davrlarida psixoprofilaktik tadbirlarni tashkil etish.

Davlat darajasida: yoshlar uchun OAV iste'moli madaniyatini shakllantirishga qaratilgan milliy media savodxonlik dasturlarini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- McQuail D. Mass Communication Theory. – 6th ed. – London: SAGE Publications, 2010. – 616 p.
- Twenge J.M. iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy – and Completely Unprepared for Adulthood. – New York: Atria Books, 2017. – 352 p.
- Yoshlar xalqaro deklaratsiyasi. – BMT, 1998. – URL: <https://www.un.org/development/desa/youth/>
- O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2016.
- Leontev A.N. Deyatel'nost. Soznanie. Lichnost. – Moskva: Politizdat, 1977. – 304 s.
- Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977. – 247 p.
- Beck A.T., Rush A.J., Shaw B.F., Emery G. Cognitive Therapy of Depression. – New York: Guilford Press, 1979. – 425 p.
- Gerbner G., Gross L. Living with Television: The Violence Profile // Journal of Communication. – 1976. – Vol. 26 (2). – P. 172–199.
- Twenge J.M., Campbell W.K. Associations between screen time and lower psychological well-being among children and adolescents // Preventive Medicine Reports. – 2018. – Vol. 12. – P. 271–283.

10. Holman E.A., Garfin D.R., Silver R.C. Media's role in broadcasting acute stress following the Boston Marathon bombings // PNAS. – 2014. – Vol. 111 (1). – P. 93–98.
11. Anderson C.A., Bushman B.J. Effects of violent video games on aggressive behavior // Psychological Science. – 2001. – Vol. 12 (5). – P. 353–359.
12. Karimova M.V. Shaxs psixologiyasi va ruhiy salomatlik. – Toshkent: Fan, 2012. – 280 b.
13. Spielberger C.D., Gorsuch R.L., Lushene R.E. Manual for the State-Trait Anxiety Inventory. – Palo Alto, CA: Consulting Psychologists Press, 1970.
14. Lovibond S.H., Lovibond P.F. Manual for the Depression Anxiety Stress Scales. – 2nd ed. – Sydney: Psychology Foundation, 1995.
15. Buss A.H., Durkee A. An inventory for assessing different kinds of hostility // Journal of Consulting Psychology. – 1957. – Vol. 21 (4). – P. 343–349.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.